# UZBEKISTAN AIRWAYS

inflight magazine

03 | (116) | 2023 | Winter

## Myunxen sizni kutmoqda

Мюнхен ждёт

## Kochnevlar sulolasidagi birinchi uchuvchi

The First in the Kochnev Dynasty of Pilots
Первый в династии лётчиков Кочневых

## Discover the Universe of Karakalpak Ornamental Art

Откройте для себя Вселенную каракалпакской орнаментики

ipotekabank
otp group

# Onlayn mikroqarz

## Bir zumda!

Endi sug'urta to'lovisiz!




Mobil ilovani yuklab oling!

1233

www.ipotekabank.uz

# Siz barqarorlikni orzu qilasizmi?

## Ipoteka-bankda omonat oching!

# 22%

* Omonatni muddatning oxirigacha to'ldirish imkoniyati
* Istalgan bank kartalaridan foydalanish imkoniyati
* Muddatdan oldin pul yechish imkoniyati

**Xavfsizlik kafolati**

**Himoya kafolati**

**To'lov kafolati**

# MUNDARIJA

CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ





**8 Kochnevlar sulolasidagi birinchi uchuvchi**
The First in the Kochnev Dynasty of Pilots
Первый в династии лётчиков Кочневых

**16 O'zbekistondagi uchuvchilar maktabi**
Pilot School in Uzbekistan
Школа пилотов в Узбекистане

**22 Chipta masofasida**
Just a Ticket Away
На расстоянии билета

**28 Parvozga tayyormiz. Keyingi bekat – Yangi yil**
We Are Taking Off: Next Stop Is New Year
Мы взлетаем. Следующая остановка – Новый год

**36 O'zbekiston janubining yer osti dunyosi**
Underground Worlds of Southern Uzbekistan
Подземные миры южного Узбекистана

**40 Big Paintings of Tashkent Streets**
Большие картины ташкентских улиц

**46 Myunxen sizni kutmoqda**
Мюнхен ждёт

**52 Anqara: kamtarin va samimiy**
Анкара: скромная, но душевная

**TOSHKENT SHAHAR, O'QCHI KO'CHASI 7. "BOULEVARD" TOSHKENT CITY**
**TEL: +998 95 1954444**

**TISSOTWATCHES.COM**

# MUNDARIJA

CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ


**58 O'zbekiston go'zalligini kashf etib**
Discovering the Beauty of Uzbekistan
Исследуя красоту Узбекистана

**64 Elmira Yusupova: "Ballet is the Art of Devoted People"**
Эльмира Юсупова: «Балет — искусство преданных людей»

**72 Music of Zarband Marble**
Музыка мрамора Зарбанда

**76 O'zbekistonda hokkey ertagi davom etadi**
Хоккейная сказка в Узбекистане продолжается

**80 Kanishka: Fusion of Craft and Style**
Kanishka: слияние ремесла и стиля

**86 Jarkurgan Minaret's Architectural Miracle**
Архитектурное чудо Джаркурганского минарета

**92 Discover the Universe of Karakalpak Ornamental Art**
Откройте для себя Вселенную каракалпакской орнаментики

**100 Bobur. Jangchi, hukmdor va shoir**
Бабур. Воин, правитель и поэт

**106 «Братец, братец сколько ног было у вашего коня?»**

**112 Gurtik, Karakalpak Beshbarmak**
Гуртик, каракалпакский бешбармак

**116 2024-yil uchun travel munajjimlar bashorati**
Travel-гороскоп на 2024 год

**118 Bolalar uchun**
For Kids
Детская страница

**122 Yo'lovchilar uchun ma'lumot**
Information for Passengers
Информация для пассажиров

UZBEKISTAN airways

**TAHRIRIYAT**

**Shuxrat Xudaykulov**
Tahririyat kengashi raisi

**Rimma Kuzmina**
Nashr uchun mas'ul
**Sultana-begim Maxmud-zade**
Muharrir
**Bakhtiyor Nasimov**
Ustoz muharrir
**Abror Abduvaitov**
Muharrir-tarjimon
**Rahmatjon Yunusov**
Dizayn va sahifalovchi

Mualliflar:
**Aleksandr Malyshev, Irina Kerimova, Liliya Nikolenko, Marina Korochkina, Olesya Tsai, Paulo Lorentso Santos Ruiz, Raisa Doroshina, Sevara Latipova, Sharof Egamberdiev, Umar Kurbanov** va **Zemfira Kurbanova**

Fotoredaktor:
**Abdulaziz Xalilov**

Foto:
**Abdubosit Azizov, Azamat Matkarimov, Bakhtiyor Nasimov, Ernest Kurtveliev, Irina Kerimova, Igor Ten, Laylo Khusanboeva, Liliya Nikolenko, Marina Volkova, Paulo Lorentso Santos Ruiz, Raisa Doroshina, Rustam Bazarov, Svetlana Rybakova, Sharof Egamberdiev, Umar Kurbanov, Vladimir Goncharenko, Yuri Kim** va **Yuri Polyansky**

Muqova uchun foto Amirsoy Resort tomonidan taqdim etildi.

Musahhihlar, o'zbek tili:
**Ozoda Azimova**
**Jamoliddin Hamdamov**
Proofreader, English language:
**Mark A Stam**
Корректор, русский язык:
**Юлиана Шопен**

Reklama /Ads Manager
**Bahodir Imamdjanov**
+998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21
E-mail: pr@uzairways.com

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida (O'zMAA) 03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
1993-yildan beri nashr etiladi.
«Smartpack Print» MChJ QK bosmaxonasida chop etilgan.
Buyurtma № 2/58.
Adadi 20 700.
Manzili: Toshkent sh., Yashnobod tumani, Taraqqiyot ko'chasi, 2.

# Hampton by Hilton Tashkent - aniq tanlov

Qayerda bo'lsangiz ham, o'zingiz istagan tarzda dam oling.

# The easiest decision of your trip

Delivering the exceptional stay you deserve, everywhere you want to be.

Tashkent, Istiqbol str., 17

+998 71 205 22 00

www.hilton.com

# Yangi yil bilan!

2024-YILDA YORQIN ORZULARINGIZNI RO'YOBGA CHIQARISHDAN QO'RQMANG VA YANGI KASHFIYOTLAR SARI INTILING. BAXTGA ERISHING VA UZBEKISTAN AIRWAYS QANOTLARIDA SAYOHAT QILING!

## *Happy New Year!*

IN 2024, DO NOT BE AFRAID TO REALIZE YOUR BRIGHT DREAMS AND STRIVE FOR NEW DISCOVERIES. BE HAPPY AND TRAVEL ON THE WINGS OF UZBEKISTAN AIRWAYS!

## *С Новым годом!*

В 2024 ГОДУ НЕ БОЙТЕСЬ ВОПЛОЩАТЬ СВОИ ЯРКИЕ МЕЧТЫ И СТРЕМИТЕСЬ К НОВЫМ ОТКРЫТИЯМ. БУДЬТЕ СЧАСТЛИВЫ И ПУТЕШЕСТВУЙТЕ НА КРЫЛЬЯХ UZBEKISTAN AIRWAYS!

# KOCHNEVLAR SULOLASIDAGI BIRINCHI UCHUVCHI

**Sultana-begim Makhmud-zade**
Султана-бегим Махмуд-заде

Boeing 787 va Airbus A320 havo kemalari sardori Konstantin Kochnev ilk parvozi, oilasi bilan ishi o'rtasidagi muvozanatni bir maromda ushlab turishga erishgani va bir yildan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan uchrashuvga olib kelgan parvozi haqida gapirib berdi.

## THE FIRST IN THE KOCHNEV DYNASTY OF PILOTS

Konstantin Kochnev, commander of a Boeing-787 and an Airbus A320, talks about his first flight, balancing work and family, and the flight that led to a meeting with the President of the Republic of Uzbekistan a year later.

## ПЕРВЫЙ В ДИНАСТИИ ЛЁТЧИКОВ КОЧНЕВЫХ

Командир Boeing -787 и Airbus A320 Константин Кочнев рассказывает о первом полёте, достижении баланса между работой, семьёй и рейсе, который через год привел к встрече с Президентом Республики Узбекистан.

# AVIATSIYADAGI ILK QADAMLAR

Men oilamdagi birinchi uchuvchiman. To‘g‘risini aytsam, yoshligimda mashhur o‘zbek reperi bo‘lishni orzu qilardim. Lekin ota-onam bunga qarshi bo‘lgan, chunki bu ko‘proq xobbi edi.

Maktabni tugatgach, oldimda tanlov turardi: yo onam va otam singari muhandis bo‘lish yoki uchuvchi bo‘lish. “O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasi tomonidan chop etiladigan “O‘zbekiston qanotlari” gazetasidan uchuvchilik kasbini egallash imkoniyati haqida bilib qoldik. Bulutlar uzra ko‘tarilish istagi menga aviatsiyani tanlashimga yordam berdi.

2007-yilda Sankt-Peterburg davlat fuqaro aviatsiyasi universitetiga qabul qilindim va aviakompaniyaning boshqa kursantlari bilan birga o‘qish uchun jo‘nab ketdim.

# ILK PARVOZ

Birinchi parvozimni AN-2 samolyotida amalga oshirganman. Mashg‘ulotda kutilmagan voqea sodir bo‘ldi... Ma’lum bo‘lishicha, o‘sha kuni havo kemasi bortida nafaqat men, instruktor va kursdoshim bo‘lgan, balki atrofimda tinimsiz aylanib yurgan kutilmagan mehmon – ari ham kirib olgan ekan. Bir payt u chaqib olishidan qo‘rqib, shturvalni qo‘yib yubordim va qo‘llarim bilan hasharotni hayday boshladim. Buni ko‘rgan instruktor menga qarab: “Sening vazifang nima bo‘lishidan qat’i nazar, havo kemasini boshqarish” dedi.

Aksiga olib, yerga qo‘nayotganimizda ari bo‘ynimga qo‘nib oldi va mayda panjalari bilan qitiqlab, yura boshladi. Bu safar xatoga yo‘l qo‘yishga haqqim yo‘q edi. Men kuchimni yig‘ib, tishimni tishimga qo‘yib, shturvalni ushlab, AN-2ni uchish-qo‘nish yo‘lagiga qo‘ndirdim. Keyinroq hasharotni rosa qidirdik, lekin bortda uni topa olmadik.

**First steps in aviation**

“I am the first aviator in my family. Honestly speaking, when I was young I dreamed of becoming a famous Uzbek rapper. But my parents were against it, because it was more like a hobby.

After graduating from school, I had a choice: either to become an engineer, like my mom and dad, or a pilot. I learned about the opportunity to master the profession of a pilot from the newspaper “Wings of Uzbekistan”, which was published by the “O‘zbekiston havo yo‘llari” airline. The desire to rise above the clouds helped me to make a choice in favor of aviation.

In 2007, I entered the Saint Petersburg State University of Civil Aviation and went to study among other airline cadets.

**Первые шаги в авиации**

В семье я – первый авиатор. Признаюсь честно, в молодости мечтал стать известным узбекским рэпером. Но родители были против, ведь это больше похоже на хобби.

После окончания школы передо мной стоял выбор: либо стать инженером, как мама с папой, либо пилотом. О возможности освоить профессию лётчика узнали из газеты «Крылья Узбекистана», которую выпускала авиакомпания O‘zbekiston havo yo‘llari. Сделать выбор в пользу авиации помогло желание подняться выше облаков.

В 2007 году поступил в Санкт-Петербургский государственный университет гражданской авиации и отправился на учёбу в числе остальных курсантов авиакомпании.

### Flight of the bumblebee

I made my first flight on an AN-2 airplane, or as many people fondly refer to it, a "corn plane." Let's say that the training was … surprising. As it turned out, that day there was not only me, the instructor and my classmate on board the aircraft, but also an unexpected guest – a bumblebee, which was constantly circling around me. At one point, frightened by the sting, I let go of the controls and began to drive the insect away with my hands. The instructor looked at me confused and said: "Your task is to control the aircraft in spite of everything."

Unfortunately, during landing, the bumblebee sat on my neck and, tickling me with its tiny paws, began to crawl. This time I had no right to make a mistake. I gathered my strength, clenched my teeth, grabbed the controls and landed the AN-2 on the runway. Later we looked for the insect, but never found it on board.

### My hobbies

There is a widespread opinion that pilots are fans of extreme pastimes. I prefer a quiet rest. There is enough adrenaline in my profession.

My hobby remains the same – music, but, unfortunately, I have less and less time for it over the years. I like to go out and fish in a quiet environment, away from the hustle and bustle of the city.

I am currently running an aviation blog on a social network. During the coronavirus pandemic I used to record podcasts answering common questions about my job. I strive to popularize the profession of pilot among Uzbeks.

## XOBBI

Uchuvchilar ekstremal o'yin-kulgilarni yaxshi ko'radilar, degan fikr keng tarqalgan. Men tinchgina dam olishni afzal ko'raman. Kasbimdagi adrenalinning o'zi yetarli.

Xobbiyim o'sha-o'sha – musiqa, lekin, afsuski, yillar o'tib, unga kam vaqt ajratyapman. Tabiat qo'yniga chiqishni va shahar shovqinidan uzoqda, sokin muhitda baliq ovlashni yaxshi ko'raman.

Ijtimoiy tarmoqlarda aviatsiya blogini yuritaman. Koronavirus pandemiyasi paytida podkastlarni yozib oldim, ularda ishim haqidagi umumiy savollarga javob berdim. O'zbekistonliklar orasida uchuvchilik kasbini ommalashtirishga intilyapman.

### Полет шмеля

Свой первый полёт совершил на самолёте АН-2, или как многие ласково его называют – на «кукурузнике». Скажем так, тренировка прошла с сюрпризом... Как оказалось, в тот день на борту воздушного судна находился не только я, инструктор и мой однокурсник, но и нежданный гость в лице шмеля, который непрестанно кружил вокруг меня. В один момент, испугавшись укуса, бросил штурвал и начал отгонять насекомое руками. Инструктор недоумевающе посмотрел на меня и заявил: «Твоя задача – управлять воздушным судном несмотря ни на что».

Не тут-то было. Как назло, во время посадки шмель сел мне на шею и, щекоча крохотными лапками, начал ползать. В этот раз я не имел права на ошибку. Собрался с силами, сжав зубы, схватился за штурвал и посадил АН-2 на взлётно-посадочную полосу. Позже мы стали искать насекомое, но так и не нашли его на борту.

### О хобби

Есть распространенное мнение, что пилоты – любители экстремального времяпрепровождения. Я предпочитаю спокойный отдых. Адреналина достаточно и в моей профессии.

Хобби осталось прежним – музыка, но, к сожалению, с годами времени на неё всё меньше. Люблю выезжать на природу и порыбачить в спокойной обстановке, подальше от городской суеты.

Веду авиационный блог в социальной сети. Во время пандемии коронавируса записывал подкасты, где отвечал на распространённые вопросы о свой работе. Стремлюсь популяризовать профессию пилота среди узбекистанцев.

# "UMR YO'LDOSHIM – MENING SUYANGAN TOG'IM"

Biz tanishganimizda, Anastasiya patologoanatom bo'lmoqchi ekanligini aytgan. Shundan keyin ham u bilan qolganimni haligacha tushunolmayman! 2023-yilda turmush qurganimizning to'qqiz yilligini nishonladik. Bu vaqt ichida farzandlarimiz – Mariya, Maksim va Mixail dunyoga keldi.

Anastasiya mening suyangan tog'im. U ish va oilani bir maromda ushlashimga juda ko'p yordam beradi. Uning uchta farzandidan tashqari yana bir bolasi bor, bu jadval bo'yicha uxlashi, to'g'ri ovqatlanishi va g'amxo'rlik ko'rsatilishi kerak bo'lgan men. Menga shunday kuchli, sabrli va mehribon umr yo'ldoshini bergani uchun Xudoga shukronalar aytaman. Men ham dam olish kunlarida unga yordam berishga harakat qilaman. Masalan, uy yumushlarini bajaraman yoki bolalarga qarayman.

Qizim professional ravishda musiqa bilan shug'ullanadi. Kichik o'g'lim bor-yo'g'i bir yarim yoshda, u hali kelajakda kim bo'lishni hal qilmagan. Ammo katta o'g'lim aviatsiyaga qiziqish bildira boshladi. Ularning har biri qaysi yo'lni tanlashini hayot ko'rsatadi. Ammo men bolalar hayotlarini osmon bilan bog'lashlarini talab qilmayman.

**"My spouse is my support system"**

When we met, Anastasia said she planned to become a pathologist. How I did not run away from her after that, I still cannot understand! In 2023, we celebrated nine years of marriage. During this time, we have given birth to Maria, Maxim and Mikhail.

Anastasia is my support system. She helps a lot in terms of combining career and family. In addition to three children, she has one more child – me, who also has to sleep on schedule, eat right, get care. I thank God for giving me such a strong, patient and loving life partner. And I, accordingly, try to help her on weekends. For example, by doing housework or spending time with the kids.

My daughter is professionally engaged in music. My youngest son is only one and a half years old, and he has not yet decided what he wants to become. But my eldest son is beginning to show interest in aviation. Life will show what path each of them will choose. But I will not insist that my children connect their lives with the sky.

**«Супруга – мой крепкий тыл»**

Когда мы познакомились, Анастасия заявила, что планирует стать патологоанатомом. Как я после этого не убежал от неё, до сих пор не могу понять! В 2023 году мы отпраздновали девять лет в браке. За это время у нас появились на свет Мария, Максим и Михаил.

Анастасия – мой крепкий тыл. Она очень помогает в плане совмещения карьеры и семьи. Помимо трёх детей, у неё есть ещё один ребёнок – я, который также должен спать по расписанию, правильно питаться, получать заботу. Благодарен Богу за то, что подарил мне такую сильную, терпеливую и любящую спутницу жизни. И я, соответственно, пытаюсь ей помогать в выходные дни. Например, занимаюсь хозяйством или присматриваю за детьми.

Дочь профессионально занимается музыкой. Младшему сыну всего полтора года, и он пока не определился, кем хочет стать. А вот старший сын начинает проявлять интерес к авиации. Жизнь покажет, какой путь каждый из них выберет. Но настаивать, чтоб дети связывали жизнь с небом, не стану.

# PREZIDENT BILAN UCHRASHUV

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan aviatsiya xodimi unvonini olish – bu ta’riflab bo‘lmas tuyg‘u. Universitetga kirganimdan beri o‘z faoliyatimda erishmoqchi bo‘lgan ko‘p narsalar haqida o‘ylaganman, lekin buni xayolimga ham keltirmaganman. Eng qizig‘i, taqdirlash marosimidan bir hafta oldin bir tush ko‘rdim: janob Prezident oldida parvoz formasisiz turar edim, u bosh chayqab “Bunaqasi ketmaydi”, dedi. Ertasi kuni ertalab yangi forma tayyorlatishga bordim. Keyin esa, davlat rahbari bilan uchrashuv o‘ngimda ham bo‘lib o‘tdi.

Hamkasblarim ushbu mukofotni bir yarim yil oldin sodir bo‘lgan bir voqea bilan bog‘lashadi. 2022-yilning 25-may kuni Toshkent – Istanbul yo‘nalishida parvoz qilayotgan havo kemasining yoqilg‘i tizimida nosozlik yuz berdi. Bu ikkita dvigateldan birining to‘xtab qolishiga olib keldi. Vaziyat noodatiy bo‘lsada, o‘quv mashg‘ulotlarida bunday vaziyatdan qanday chiqish ustida ko‘p mashq qilingan. Bu har bir uchuvchi bilan sodir bo‘lishi yoki hech qachon sodir bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli, Uzbekistan Airways’da trenajyor tayyorgarligiga katta e’tibor qaratiladi. Simulyatorlarda turli parvoz parametrlari o‘rnatiladi: bortdagi yong‘indan tortib dvigatelning va samolyotning muhim tizimlarigacha ishlamay qolishi.

Asosiysi, bunday vaziyat yuz bersa xotirjamlikni yo‘qotmaslik, vahimaga tushmaslik va hamma narsani ko‘rsatmalarga muvofiq bajarishdir. Mening amaliyotimda shunday holat yuz berganida, biz Turkiya hududiga kirgan edik va men havo kemasi sardori sifatida havo kemasini Trabzon aeroportiga qo‘ndirishga qaror qildim. O‘shanda hamkasblarim davlat mukofotiga sazovor bo‘lishim mumkinligini aytishgandi. Vaqt o‘tib, bu gaplar esimdan ham chiqqandi.

Bir kuni tunda, 2023-yil 27-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni arafasida obunachilarim va hamkasblarimdan o‘nlab tabriklar kela boshladi. Buni ko‘rib turmush o‘rtog‘im bilan hayratda edik. Prezidentning rasmiy veb-saytidagi farmonni o‘qib chiqqach, gap nimadaligini tushundim.

Ko‘ksaroy qarorgohidagi marosimga borishdan oldin tinchlantiruvchi dori ichishimga to‘g‘ri keldi. Meni juda kuchli hayajon bosdi. Bunday yuqori darajadagi tadbirda birinchi marta qatnashishim edi. Shavkat Miromonovich bilan uchrashuv menga ishonch bag‘ishladi va erishganlarim bilan to‘xtab qolmaslikka undadi.

Ishonchim komilki, Uzbekistan Airways o‘zining yo‘nalishlar tarmog‘i va havo flotini yanada rivojlantirishda davom etadi. O‘quv-mashg‘ulot markazida uchuvchilarning yangi avlodini tayyorlash bo‘yicha oldimizga katta maqsadlar qo‘yganmiz. Bularning barchasi xalqaro aviatashuvlar bozorida aviakompaniyaning nufuzini mustahkamlash imkonini beradi.

Fursatdan foydalanib, har bir yurtdoshimizga 2024-yilda Uzbekistan Airways havo kemalarida uzoq kutilgan sayohatga otlanishlarini va o‘zlari uchun sayyoramizning eng go‘zal burchaklarini kashf etishlarini tilayman.

## Meeting with the President

It is an inexpressible feeling to receive the title of Honored Worker of Aviation of the Republic of Uzbekistan. From the moment I entered the university, I thought about many things that I would like to achieve in my career, but I never even dreamed of this. The most interesting thing is that a week before the awarding I had a dream: I was standing in front of Mr. President without a flight uniform. He shook his head and said: "This will not do." The next morning, I went to prepare a new flight uniform. And then the meeting with the head of state happened for real.

The event that my colleagues associate with this award happened a year and a half ago. On May 25, 2022, an airplane flying the Tashkent–Istanbul route had a fuel system failure. This led to the shutdown of one of the two engines. The situation is not standard, but it has been practiced for many hours on simulators. It can possibly happen to any pilot, or it may never happen to them. Nevertheless, Uzbekistan Airways pays great attention to simulator training. Flight parameters are set on simulators: from a fire on board to failures of engines and vital aircraft systems. The main thing is not to lose composure, not to panic and to do everything according to the instructions. In my situation, such a case occurred when we had already entered Turkey and I, as the commander, decided to land the plane at Trabzon Airport. At that time my colleagues told me that I could be nominated for a state award. Time passed and I forgot about these conversations.

And then one night, on August 27, 2023, on the eve of the Independence Day of the Republic of Uzbekistan, I started receiving dozens of congratulations from my subscribers and colleagues. My wife and I were shocked. Doubts fell away after reading the decree on the official website of the President.

Before going to the ceremony at the Kuksaroy residence, I had to take a sedative. I was very excited. It was my first time at such a high-level event. Meeting with Shavkat Miromonovich gave me confidence and encouraged me not to rest on my laurels.

I am confident that Uzbekistan Airways will continue to further develop its route network and air fleet. We have set big goals to train a new generation of pilots at the Training Center. All this will allow us to strengthen the airline's image in the international air transportation market.

I would like to seize the moment and wish every citizen of the Republic of Uzbekistan to embark on a long-awaited journey on Uzbekistan Airways airplanes in 2024 and discover the most beautiful corners of the planet."

## Встреча с Президентом

Это непередаваемое ощущение – получить звание заслуженного работника авиации Республики Узбекистан. С момента поступления в университет думал о многом, чего хочется достичь в карьере, но о таком даже не мечтал. Самое интересное: за неделю до награждения приснился сон: я стоял перед господином Президентом без летной формы, он качал головой и говорил: «Так не пойдет». На следующее утро поехал готовить новый форменный костюм к полётам. Ну а затем – встреча с главой государства произошла наяву.

Событие, с которым мои коллеги связывают эту награду, произошло полтора года назад. 25 мая 2022 года у самолёта, совершавшего полёт по маршруту Ташкент – Стамбул, произошёл отказ в работе топливной системы. Это привело к остановке одного из двух двигателей. Ситуация нестандартная, но отработанная многими часами на тренажёрах. Такое может случиться у каждого пилота или не произойти никогда. Тем не менее в Uzbekistan Airways уделяют тренажёрной подготовке огромное внимание. На симуляторах задаются параметры полёта: от пожара на борту до отказов двигателей и жизненно важных систем самолёта. Главное: в реальных условиях не потерять самообладания, не паниковать и сделать все согласно инструкции. В моей практике такой случай произошел, мы уже залетели на территорию Турции, и я, как командир, принял решение посадить самолёт в аэропорту Трабзона. Тогда коллеги мне сказали, что меня могут представить к государственной награде. Шло время, и я забыл об этих разговорах.

И вот однажды ночью, 27 августа 2023 года, накануне Дня независимости Республики Узбекистан, стал получать десятки поздравлений от своих подписчиков и коллег. Мы с супругой были в шоке. Сомнения отпали после прочтения указа на официальном сайте Президента.

Перед тем как пойти на церемонию в резиденцию «Куксарой», пришлось принять успокоительное средство. Уж очень сильное волнение меня охватило. На мероприятии такого высокого уровня был впервые. Встреча с Шавкатом Миромоновичем придала мне уверенности и побудила не останавливаться на достигнутом.

Уверен, что Uzbekistan Airways продолжит дальнейшее развитие маршрутной сети и воздушного флота. Мы поставили перед собой большие цели по подготовке нового поколения пилотов на базе Учебно-тренировочного центра. Всё это позволит нам укрепить имидж авиакомпании на международном рынке авиаперевозок.

Хочу воспользоваться моментом и пожелать каждому жителю Республики Узбекистан в 2024 году отправиться в долгожданное путешествие на самолётах Uzbekistan Airways и открыть для себя прекраснейшие уголки планеты.

## KAMBODJANING KO‘NGIL VA TANA UCHUN JANNATMAKON MASKANI

# Krabey orollari

Ko‘pincha, biz qarindosh va yaqinlarimiz bilan dam olishga vaqt topa olmaymiz, ortiqcha ovoragarchiliklar esa charchatadi va kayfiyatni buzadi. Hissiy va jismoniy muvozanatni qanday tiklash mumkin? Faqatgina to‘liq dam olish bunga yordam berib, tana salomatligini va ruhiy tetikgligini tiklaydi.

Iliq va rang-barang Kambodjaning janubida joylashgan Six Senses Krabey Island orol-mehmonxonasi tashvishlarni butunlay hayoldan chiqarish uchun ajoyib makon.

Xususiy hisoblangan Krabey orolining 12 gektar maydoni sizning to‘liq ixtiyoringizga havola etiladi. Tom ma’noda toza tabiat bilan uyg‘unlashib ketgan 40 ta keng villalarda samimiy mehmondo‘stlik va eksklyuziv xizmatlar guvohi bo‘lasiz.

Har bir villa o‘z hududida suzish uchun mo‘ljallangan suv hafzasiga va yuqori darajada jihozlangan dam olish hududiga ega. Mehmonlarga ularning xohish va istaklarini tom ma’noda oldindan bilib turadigan va eng mayda tashvishlardan xalos etadigan shaxsiy xizmat ko‘rsatuvchi xodim biriktiriladi.

Orol tabiati sizni qadimiy junglilar dunyosiga g‘arq etadi. Uning hududi bo‘ylab sayr qilar ekansiz, siz ekzotik jonivorlar va g‘ayrioddiy o‘simliklarga duch kelasiz.

Bu yerda baxtli onlar va osoyishtalik nafaqat tabiat tomonidan in’om etiladi. Six Sense SPA xizmatlarini ko‘rsatishda katta tajribaga ega. Krabey 2022 yilda Kambodjaning eng yaxshi spa-mehmonxonasi degan nomga sazovor bo‘ldi. Bu yerda siz «kxmer marosimi»da qatnashishingiz, ya’ni tana parvarishi bo‘yicha 3-soatlik spa muolajani qabul qilishingiz mumkin. Skrablash, turli hil massajlar, «chupon» o‘t-o‘lanlar (o‘simlik) saunasi tom ma’noda sizni yoshartiradi. Bu aql bovar qilmaydigan orolda «Alkimyo laboratoriya» mavjud. U yerda siz tajribali mutaxassislar rahbarligida organik moddalardan skrab, krem va balzam tayyorlash imkoniga ega bo‘lasiz.

Mehmonxonada bir qancha boshqa mashg‘ulot turlari va tadbirlar: snorkling, suv ostida suzish va yogadan tortib, to fitness, pazandalik va katerda yaqin joylashgan oppoq qumli plyajlarga boy orollarga sayohatlargacha taklif etiladi.

Yosh mehmonlar uchun Nest bolalar klub faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, unda ko‘ngilochar tadbirlar va qiziqarli mashg‘ulotlar keng tanlovi taklif etiladi.

Pazandachilik durdonalari ixlosmandlari oroldagi uchta noyob restoranlardan birida hissiyotlarning cho‘qqisini zabt etadi. Hashamatli Tree restoranida xmer va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining etnik taomlariga taklif qiladi. Panosiyo va xalqaro taomlar ixlosmandlari esa ANA restoranining darajasidan yoqimli hayratda qolishadi. Suzish hafzasi bo‘yida joylashgan Double Dip Hangout restoran-bari esa shoshilmay, bemalol dam olishni yaxshi ko‘radiganlar uchun ideal bo‘lib, undan quyosh botishining unutilmas manzarasini kuzatish mumkin.

Siz Senses Krabey Island orolida barcha meva va sabzavotlar mehmonxonaning xususiy ekofermasida yetishtiriladi, yangi tutilgan baliq va go‘sht esa yuqori darajada ishonchli yetkazib beruvchilar tomonidan ta’minlab beriladi.

Krabey oroliga yetib olish juda oson. Bangkokdan Pnompenga parvoz qilasiz, u yerdan zamonaviy trassa bo‘ylab 2,5 soat yurasiz, va so‘ngra qayiqda 10 daqiqada orolga yetib olasiz.

Agar siz Lara Kroft izidan borib, Janubi-Sharqiy Osiyoning qadimiy durdonasi hisoblangan Angkor-Vat ibodatxonasiga tashrif buyurishni istasangiz, Bangkokdan Siyem Ripga to‘gridan-to‘gri parvoz tahminan bir soat davom etadi. Qadimiy shahar devorlari yonida tong otishini kutib, u yerdan bir soatdan kamroq vaqt ichida Sianukvilga uchib borish mumkin, va u yerdagi aeroportdan Krabey oroliga 25 daqiqada yetib olasiz.

Hoziroq joylarga buyurtma berishga shoshiling! Noyabrdan may oyigacha bo‘lgan davr bu yerda dam olish uchun eng qulay vaqt hisoblanadi. Six Senses mehmonlar uchun yangi yil bayrami munosabati bilan ko‘ngilochar va salomatlikni tiklash bo‘yicha dastur tayyorlaydi.

Mehmonxona bron qilish uchun Six Senses Krabey Island saytiga murojaat qiling va batafsil ma’lumot olish uchun Telegram-kanaliga obuna bo‘ling.

# Остров Крабэй

## РАЙ ДЛЯ ДУШИ И ТЕЛА В КАМБОДЖЕ

Нам часто не хватает времени для того, чтобы отдохнуть вместе с родными и близкими, а суета утомляет и портит настроение. Как восстановить эмоциональное и физическое равновесие? Поможет только полноценный отдых, восстанавливающий здоровье тела и бодрость духа!

Хорошо, что есть идеальное место, где можно полностью забыть о заботах, – остров-отель Six Senses Krabey Island на юге теплой и красочной Камбоджи.

Частный остров Крабэй — это 12 гектаров территории, которая полностью в вашем распоряжении. Первозданная природа буквально растворила в себе 40 просторных вилл, где добрый обычай гостеприимства сочетается с эксклюзивным сервисом.

Каждая вилла имеет свой собственный бассейн с прекрасно оборудованной зоной отдыха. За гостями закрепляется личный батлер, буквально предугадывающий желания и избавляющий от малейших забот.

Природа острова погрузит вас в мир первозданных джунглей. Во время прогулки по его территории вы встретите экзотических животных и увидите диковинные растения. Вся флора и фауна острова абсолютно безопасны.

Блаженство и покой тут дарят не только природа. В Six Senses знают толк в СПА! В 2022 году Крабэй завоевал звание лучшего спа-отеля Камбоджи!

Вы сможете посетить «кхмерский ритуал» — спа-процедуру, трехчасовой комплекс по уходу за телом. Скрабирование, различные массажи, травяная сауна «чупон» в буквальном смысле омолодят вас. На этом невероятном острове есть «Алхимическая лаборатория». Здесь вы сами приготовите собственные скрабы, кремы и бальзамы из органических ингредиентов под руководством опытных специалистов.

В отеле есть масса других занятий: от снорклинга, подводного плавания, йоги до фитнеса, кулинарных занятий и путешествий на катере к белоснежным пляжам близлежащих островов.

Для юных гостей работает детский клуб Nest, предлагающий широкий выбор развлечений и познавательных занятий.

Любители кулинарных шедевров испытают на острове высочайший экстаз в одном из трех уникальных ресторанов. Этническая кухня — кхмерская и стран Юго-Восточной Азии – представлены в роскошном ресторане Tree.

Поклонники паназиатской и интернациональной кухни будут приятно поражены уровнем ресторана AHA. Для ценителей неспешного отдыха идеально подойдет раскинувшийся у бассейна элегантный ресто-бар Double Dip Hangout с незабываемым видом на закат.

Все фрукты и овощи Six Senses Krabey Island выращиваются на собственной экоферме отеля, а свежайшие рыба и мясо привозятся проверенными поставщиками экстра-класса.

Добраться до острова Крабэй совсем несложно. Через Бангкок летим в Пномпень. Оттуда – 2,5 часа по современной трассе плюс десять минут на комфортабельной лодке – и вы на острове.

Если вы желаете отправиться по следам Лары Крофт и посетить древнейшую жемчужину Юго-Восточной Азии Ангкор-Ват, то прямой перелет Бангкок – Сием Рип займет около часа. Встретив рассвет у стен древнего города, менее чем за час вы сможете долететь до Сианукиля, из аэропорта которого – около 25 минут до острова Крабэй.

Забронировать места стоит прямо сейчас! Период с ноября по май считается в этом регионе наиболее подходящим для отдыха. На новогодние праздники Six Senses готовит для гостей сказочного острова насыщенные развлекательную и оздоровительную программы.

По вопросам бронирования обращайтесь на сайт Six Senses Krabey Island, а для более подробного обзора подписывайтесь на Telegram-канал.

# O‘ZBEKISTONDAGI UCHUVCHILAR MAKTABI

# ШКОЛА ПИЛОТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

## BIR ASRLIK O‘ZBEK AVIATSIYASI

O‘zbekistonda aviatsiya deyarli bir asrlik tarixga ega. Ko‘p yillar davomida yer usti infratuzilmasi yangilandi, yangi aeroportlar qurildi, aeronavigatsiya xizmati tizimi takomillashtirildi, zamonaviy havo kemalari xarid qilindi, aviatsiya xodimlarini tayyorlash, o‘qitish ishlari olib borildi.

Shu bilan birga, yaqin vaqtgacha mamlakatimizda birorta ham ta’lim muassasasi uchuvchilarni dastlabki tayyorlash bilan shug‘ullanmagan. Sovet davrida uchuvchilarni tayyorlovchi bilim yurtlarining bitiruvchilari taqsimlash rejasiga ko‘ra O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi boshqarmasiga ishga yuborilgan. Mustaqillikka erishishimiz bilan milliy aviatashuvchi abituriyentlarni uchuvchilik kasbini egallashi uchun chet elga o‘qishga yuborishni boshlagan. Shu yillar davomida uchuvchilarning kasbiy darajasiga e’tibor kuchaytirildi, mamlakatimiz uchuvchilar maktabi esa haqli ravishda eng yaxshilaridan biri deb hisoblanadi va O‘zbekistondan tashqarida ham e’tirof etiladi.

Mamlakatimizda uchuvchilarni tayyorlash vaqti keldi. Jahon amaliyotida uchuvchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichi hazilomus va to‘g‘ri ma’noda “FROM ZERO TO HERO” (“Noldan qahramonlikka qadar”) deb ataladi.

## Век узбекской авиации

Авиация в Узбекистане имеет почти столетнюю историю. На протяжении многих десятилетий обновлялась наземная инфраструктура, строились новые аэропорты, совершенствовалась система аэронавигационного обслуживания воздушного движения, приобретались современные самолёты, велась подготовка авиационных кадров.

Вместе с тем, до недавнего времени первоначальной подготовкой пилотов не занималось ни одно учебное заведение страны. В советское время выпускники лётных училищ по распределению попадали в Узбекское Управление гражданской авиации. С обретением независимости национальный авиаперевозчик направлял абитуриентов за рубеж для получения квалификации пилота. Все эти годы профессиональному уровню пилотов уделялось повышенное внимание, а лётная школа страны заслуженно считалась и остается одной из лучших и признана далеко за пределами Узбекистана.

Настало время подготовки пилотов в нашей стране. В мировой практике первоначальная подготовка пилота шутливо и точно называется "FROM ZERO TO HERO".

# O'QUV-MASHQ MARKAZI

Uzbekistan Airways o'z tarkibida zamonaviy o'quv-mashq markaziga ega. Bu O'zbekiston Respublikasi hududida fuqaro aviatsiyasi xodimlarini to'liq tayyorlash, qayta o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha barcha zarur jihozlar bilan ta'minlangan asosiy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Yaqinda bu yerda o'ziga xos noyob va mamlakatimizda yagona uchuvchilar maktabi ish boshladi. Uchuvchilarni dastlabki tayyorlash uchun markazda barcha aviatsiya fanlari bo'yicha audio-video ko'rsatmalar va 3D modellarni taqdim etadigan interaktiv o'quv dasturlari mavjud.

Fuqaro aviatsiyasi uchun uchuvchilarni dastlabki tayyorlash xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti – ICAO (International Civil Aviation Organization) standartlari va tavsiya etgan amaliyotlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. O'zbekiston 90-yillar boshida Chikago konvensiyasini imzolab, parvozlar xavfsizligini ta'minlash, parvozlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatishga yondashuvlar bir xilligini ta'minlash manfaatlaridan kelib chiqib, ICAO standartlariga amal qilish majburiyatini zimmasiga olgan.

Shu bois "O'zaviatsiya" agentligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi ICAO standartlariga mos keladi.

## Учебно-тренировочный центр

Uzbekistan Airways имеет в своей структуре современный учебно-тренировочный центр. Это основное учебное заведение по полноценной подготовке, переподготовке и поддержанию квалификации персонала гражданской авиации на территории Республики Узбекистан, оснащённое всем необходимым оборудованием.

С недавнего времени здесь начала функционировать школа пилотов: уникальная в своем роде и единственная в стране. Для первоначальной подготовки пилотов в центре имеются интерактивные обучающие программы, предоставляющие аудио-, видеоинструкции и 3D-модели по всем авиационным дисциплинам.

Первоначальная подготовка пилотов для гражданской авиации должна осуществляться в соответствии с требованиями стандартов и рекомендуемой практикой международной организации гражданской авиации – ICAO (International Civil Aviation Organization). Узбекистан, подписав в начале 90-х годов Чикагскую конвенцию, взял на себя обязательство следовать стандартам ИКАО в интересах обеспечения безопасности полётов и единообразия подходов к организации, выполнению и обеспечению полётов.

Поэтому одобренная Агентством «Узавиация» Программа подготовки соответствует стандартам ICAO.

# TAYYORLOV DASTURI

Uchuvchilarni tayyorlash – bu uchuvchi guvohnomasini (litsenziyasini) olish uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallash va barqaror ko'nikmalarni rivojlantirishning ko'p bosqichli jarayoni.

Nazariy mashg'ulotlar quyidagi uchta asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: havo qonunchiligi; aeronavtika nazariyasi; havo kemalari, dvigatellar va tizimlarining konstruksiyasi. O'quv dasturi aviatsiya fanlaridan tashqari aviatsion ingliz tilini ham chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Amaliy mashg'ulotlar to'rtta moduldan iborat bo'lib, ularning har biri havo kemasini boshqarish, dvigatel, asbob-uskunalar (avionika), havo kemasi tizimlari va jihozlaridan foydalanishni bosqichma-bosqich o'rganish imkonini beradi.

Amaliy o'qitish jarayonida fuqaro aviatsiyasi uchuvchilarini tayyorlash va ularning malakasini ta'minlashning eng zamonaviy usuli, ya'ni kompetensiyani rivojlantirishga asoslangan yondashuv qo'llaniladi. O'quv parvoz tayyorgarligi trenajyorlarda, shuningdek, zamonaviy bir va ikki dvigatelli o'quv-mashq havo kemalarida amalga oshiriladi. Barcha parvozlar bizning va boshqa aviakompaniyalar uchun Airbus va Boeing samolyotlarida kema sardori va ikkinchi uchuvchi sifatida parvozlarni amalga oshirgan, yuzlab yosh mutaxassislarni tayyorlagan tajribali uchuvchi-instruktorlar nazorati ostida amalga oshiriladi.

Uchuvchilar maktabi bitiruvchilariga muayyan turdagi havo kemasini boshqarish huquqini beruvchi uchuvchilik guvohnomasi (litsenziyasi) beriladi.

**Программа подготовки**

Подготовка пилотов – многоступенчатый процесс приобретения знаний и развития устойчивых навыков, необходимых для получения свидетельства (лицензии) пилота.

Теоретическая подготовка охватывает три основных направления: воздушное законодательство; теория воздухоплавания; конструкция воздушных судов, двигателей и систем. Помимо авиационных дисциплин, программа обучения предусматривает углублённое изучение авиационного английского языка. Практическое обучение состоит из четырёх модулей, каждый из которых позволяет поэтапно научиться управлять самолётом, эксплуатировать двигатели, приборное оборудование (авионику), системы и оборудование воздушного судна.

В процессе практической подготовки применяется подход к обучению на основе развития компетенций: самый современный метод обучения и поддержания квалификации пилотов гражданской авиации. Учебно-лётная подготовка проводится на тренажёрах, а также на современных одно и двухдвигательных учебно-тренировочных самолётах. Все полёты выполняются под контролем опытных пилотов-инструкторов, которые подготовили сотни молодых специалистов, выполняющих полёты в нашей и других авиакомпаниях на самолётах производства Airbus и Boeing в качестве капитанов и вторых пилотов.

Выпускникам лётной школы будут выдаваться свидетельства (лицензии) пилота – обязательный документ, дающий право его обладателю управлять воздушным судном конкретного типа.

IL-114-100 havo kemasi simulyatori
*Тренажер самолета IL-114-100*

Hozirda abituriyentlarni qabul qilish va fuqaro aviatsiyasi uchuvchilarini tayyorlash ishlari faol davom etmoqda. Dastlabki uchuvchilar tayyorlash kursiga qabul qilingan va uni muvaffaqiyatli tamomlaganlarning har biri Uzbekistan Airways aviakompaniyasida ishga joylashishi kafolatlanadi.

**O'qishga qabul qilish shartlari:**
· texnik oliy ma'lumotga ega bo'lish;
· 32 yoshdan oshmagan bo'lish;
· sog'lom bo'lish;
· harbiy guvohnomaga ega bo'lish;
· ingliz tilini a'lo darajada bilish (6,0 darajadan past bo'lmagan IELTS sertifikati).

O'qish muddati - 2 yil, o'qish xarajatlari keyinchalik kompaniyada ishga joylashish majburiy sharti bilan "Uzbekistan Airways" AJ tomonidan to'liq to'lanadi.

В настоящее время продолжается активный приём абитуриентов и подготовка пилотов гражданской авиации. Всем, кто сможет поступить и успешно окончить обучение на курсах первоначальной подготовки пилотов, гарантируется трудоустройство в Uzbekistan Airways.

**Для поступления необходимо следовать нескольким условиям:**
· иметь высшее техническое образование;
· возраст не старше 32-х лет;
· отменное здоровье;
· наличие военного билета;
· отличное знание английского языка (сертификат IELTS с результатом не ниже 6,0).

Срок обучения - 2 года, стоимость обучения полностью оплачивается авиакомпанией «Uzbekistan Airways», с обязательным условием последующего трудоустройства в компании.

Markaz haqidagi barcha ma'lumotlar, shuningdek, qabul va o'qitish shartlari bilan O'quv-mashq markazining www.aviatraining.uz sayti orqali tanishish mumkin.

Все подробности о Центре, а также условиях приёма и обучения можно найти на сайте Учебно-тренировочного центра www.aviatraining.uz.

Iskandar Sharafov

# Aviakompaniya havo kemalarining eng yaxshi fotosuratlari tanlovi g‘oliblari

Sofia Nikolaeva

Alexey Litvinov

## Winners of the contest for the best photos of the airline's aircraft

## Победители конкурса на лучшие фотографии воздушных судов авиакомпании

Akmal Temirov

UZBEKISTAN airways

FAR ABROAD

# UZOQ XORIJDA

ДАЛЬНЕЕ ЗАРУБЕЖЬЕ

## San Francisco, USA

Trevor Noah

**14-dekabr, 2023-yil.** Yangi avlodning stend-up qiziqchisi, bir necha bor xorijiy ommaviy axborot vositalari tanloviga ko'ra dunyodagi eng nufuzli odamlar ro'yxatiga kiritilgan. Uning tug'ilgan joyi Yoxannesburg bo'lib o'sha paytdagi Janubiy Afrika Respublikasining amaldagi qonuniga ko'ra, uning qora tanli onasi va oq tanli otasi o'rtasidagi munosabatlar noqonuniy edi. Qiziqchining "Jinoyatchi bo'lib tug'ilgan: Janubiy Afrikada o'tgan bolalik hikoyalari" tarjimai holiga ko'ra Trevorda egri yo'lga kirish uchun barcha imkoniyatlar bor edi. Buning o'rniga u stend-up yo'lini tanladi va shu tufayli o'z vatanida super yulduzga aylandi, AQShda mashhur tok-shouga boshlovchilik qildi, butun dunyo bo'ylab katta stadionlarda chiqish qildi. Shon-shuhrat cho'qqisiga chiqqanida Trevor eng yaxshi ko'rgan narsalari - "yangi mamlakatlarga borish, yangi tillarni o'rganish va hamma joyda bo'lish / hamma narsani qilish" uchun televideniyedan ketdi.

**December 14, 2023.** He's the stand-up comedian of a new generation, several times included in lists of the most influential people in the world according to foreign media. His birthplace was Johannesburg and according to the law in South Africa at the time, the relationship between his black mother and white father was illegal. Judging by the comedian's autobiography "Born a Crime: Stories from a South African Childhood", Trevor had every chance to turn down the wrong path. Instead, he chose the path of stand-up and thanks to it he became a superstar in his homeland, host of a popular talk show in the United States and has performed around the world in huge stadiums. At the peak of his popularity, Trevor left television to pursue what he loves most: "visiting new countries, learning new languages and being everywhere/doing everything."

**14 декабря 2023 года.** Тревор Ноа – стендап-комик нового поколения, несколько раз попадал в списки самых влиятельных людей в мире по версии зарубежных медиа. Его место рождения Йоханнесбург, и согласно действующему в те времена закону в ЮАР отношения между его чернокожей матерью и белым отцом считались незаконными. Судя по автобиографии комика «Рожденный преступником: истории из детства в Южной Африке», у Тревора были все шансы свернуть не на ту дорожку. Вместо этого он выбрал путь стендапа и благодаря ему стал суперзвездой на родине, ведущим популярного ток-шоу в США и выступает по всему миру на огромных стадионах. В зените своей славы Тревор ушел с телевидения, чтобы заниматься тем, что он любит больше всего: «посещать новые страны, учить новые языки и быть везде / делать все».

## London, United Kingdom

Depeche Mode

**22-yanvar, 2024-yil.** "Depeche Mode" o'zining yubileyiga tayyorgarlik ko'rmoqda: tez orada guruh 45 yoshga to'ladi. "Rok-n-roll shon-shuhrati zalining" rasmiy a'zolari, britaniyalik rok musiqachilar faoliyatini elektron musiqa apologetlari sifatida boshlashgan. Guruhning yetakchi a'zosi Dave Gahan 60 yoshdan oshgan bo'lsa ham, yosh ko'rinadi. U qo'shiqlarning bosh muallifi, guruhning yuragi, yakka tarzda albom yozishga bir necha bor urinishlar bo'lsa ham, u guruhning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymadi va kuylashda davom etmoqda. Janob Gahanni katta konsertda tomosha qilish o'zgacha zavq bag'ishlaydi.

**January 22, 2024.** "Fashion dispatch" is gearing up for its 45th anniversary. Official members of the Rock and Roll Hall of Fame, these British rock musicians started out as apologists for electronic music. The band's lead singer, Dave Gahan, looks considerably younger in his sixties. He is the main songwriter, the central character of the band and despite several attempts to record a solo album, has kept the band from breaking up and continues to perform. Watching Mr. Gahan at a big concert is a special treat.

